



## ABDULLA QAHHORNING “DAHSHAT” HIKOYASIDAGI UNSIN TIMSOLIDA AYOLLAR SHA’NI

<sup>1</sup>Allaberganova Shoxida Shavkat qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti, O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili 1-kurs talabalari,

<sup>2</sup>Japbarbergenova Sevara Kudaybergen qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti, O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili 1-kurs talabalari.

<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i02-p2-70>

### ARTICLE INFO

Received: 16<sup>th</sup> February 2023

Accepted: 26<sup>th</sup> February 2023

Online: 27<sup>th</sup> February 2023

### KEY WORDS

*Hikoya janri, realistik tasvir, badiiy mahorat, ijodiy individuallik.*

### ABSTRACT

*Maqolada A.Qahhorning “Dahshat” hikoyasida sho‘ro tuzumida ayollar taqdiri badiiy talqinida hayotiy haqiqat va badiiy mahorati masalasi tadqiq etiladi.*

O‘zbek adabiyotiga ulkan hissa qo‘shgan serqirra ijodkor Abdulla Qahhor 1907-yilda Qo‘qonda dunyoga keldi. Uning otasi Abduqahhor Jalilov temirchilik bilan shug‘ullanib, oilasini boqar edi. Bundan tashqari, adib ham kunduzi o‘qib, kechasi ishlagan. Shunday bo‘lsada, otasi unga kichikligida kitoblar o‘qib bergan. Abdulla Qahhorning yozgan ko‘pgina hikoyalarida qadimgi sho‘ro davri ko‘z oldimizda gavdalanadi. Undagi boylarning kibrliligi, xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik va xalqqa nisbatan aldovlar tasvirlanadi. Adib juda ko‘p hikoya, feyleton, roman, komediya, qissalar yozdi. Uning 1934-yilda yozgan “Sarob” romani unga katta shuhrat keltirgan roman hisoblanadi. Bundan tashqari, uning bir-biriga o‘xshamaydigan bir qator hikoyalari, jumladan, “O‘g‘ri”, “Dahshat”, “Bemor” kabi hikoyalari o‘qiganimizda yozuvchi mahoratiga yana bir bor tan bermasdan ilojimiz yo‘q. U dastlab ijodini she‘r yozishdan boshlagan. Keyinchalik butun e‘tiborini nasriy asarlar yozishga qaratadi. Adib roman, qissa, hikoya, ocherk, feyleton kabi sohalarda ijod qilgan. Darhaqiqat, Abdulla Qahhor badiiy ijodning barcha yo‘nalishlarida ijod qilgan adib hisoblanadi. Abdulla Qahhor ko‘pgina asarlarida asosan, real hayotdan kelib chiqib yozadi va shu tufayli uning asarlari odamni o‘ziga jalb qiladi. U hikoyalari shunday yaratganki, undagi hech narsani ortiqcha qo‘llamagan va ularning hech birini olib yoki almashtirib ham bo‘lmaydi.

“Qahhor tug‘ma hikoyanavis edi, - deb yozadi unga zamondosh bo‘lgan rus adibasi Bat, - garchi u romanlar ham yozdi, lekin baribir kichik janrga muhabbati ularda ham sezilib turadi” – deydi. (A.Qahhor zamondoshlari xotirasida. G‘.G‘ulom nashriyoti. 1987 yil, 15-bet.) Haqiqatdan ham adib ijodida hayotiy va xayoliy voqealarni haqqoniy tarzda hikoya ichiga jamlashi alohida ahamiyat kasb etadi. Yozuvchining asarlari ixcham, tushunarli va ravon bo‘lganligi uchun kitobxon qalbiga tez va oson kira oladi. Abdulla Qahhor xalq tilini juda yaxshi bilgan va hikoyalarining aksariyati real hayotdan olingan. Uning hikoyalarida bilamizki, hammasi xalq hayotidan olingan va ochiq tarzda tasvirlab berilgan. Abdulla Qahhorning hikoyalarining ko‘pchilik qahramonlari juda ezilgan, inson manfaatlari poymol etilgan, ayol-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik, aldov va shunga o‘xshash oddiy xalq tasvirlangan bo‘lib,



ularning barchasi o'z erki va ozodligi uchun intilmaydi. Bularning ichida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan va ta'sirchan yoritib berilgan "Dahshat" hikoyasi hisoblanadi. Bunda asosan boy-badavlat kimsalarning ayol-qizlarga tajovuz qilganliklari tasvirlangan. Bu asardagi bosh qahramon boyning kichik xotini Unsin ismli qiz o'z ozodligi uchun kurashadi. Boydan kaltak yeyishidan qo'rqmay, o'z fikrlarini hech ikkilanmay ayta oladigan jasur qiz tasvirlanadi. Bu hikoyada boyning sakkizta xotini bo'lib, ularning eng kattasi Nodirmohbegim juda aqlli, farosatli va mehribon ayol. U Unsin uchun hatto boyning bergan barcha azoblariga, kaltaklariga chidaydi. Ular kechqurun gaplashib o'tirganida Nodirmohbegim bitta hikoyani aytib berayotganda: "Bola edim, dadam rahmatli gap yer edilar. Bir mehmonxona yigit... Mana shunaqa shamol kechasi ekan, "Hozir kim go'ristonga borib, Asqar ponsotning go'riga pichoq sanchib keladi?" – degan gap bo'libdi. Shunda bir kishi pichog'ini qinidan sug'urib: "Men sanchib kelaman" deb, bitta qo'ydan garov bog'lashibdi" <sup>1</sup>– deydi. Bu gapni eshitgan Unsin Dodxonni izzat-nafsigaga tegadi va uning jahli chiqadi. Natijada, Dodxo Unsinni qabristonga borib, Onhazratining sag'anasi oldida choy damlab kelishni buyuradi. Unsin Dodxodan uyiga javob berish sharti bilan qabristonga choy damlagani ketadi. Bilamizki, go'ristonning o'zi qo'rqinchli bo'ladi va u kechqurun juda ham qo'rqinchli bo'ladi. Unsin esa uyiga ketishni juda xohlaganidan shu shartgayam rozi bo'ladi. Uning hayolida faqat uyiga ketish orzusi turardi va ich-ichidan sevinar edi. Afsuski, bu sevinchi uzoqqa cho'zilmadi. Buning sababi shundaki, u qabristondan choyni damlab chiqayotganda avvalo, paranjisini esdan chiqaradi va uni olib kelishga jur'ati yetmaydi. Bundan tashqari uyga ketayotganda egniga shunday tezlik bilan maymun sakraydi va hushidan ketadi. Bu Dodxonning maymuni edi. Uni Dodxo Unsinni tekshirish uchun yuborgan edi. Unsinning hayolida faqat uyiga ketish orzusi bor edi va o'rnidan turib, yo'lini davom ettiradi. Uyiga borganda esa, Nodirmohbegim unga go'ristonning tuprog'idan choy damlab beradi va Unsin choyni ichayotib, uning momotaloq bo'lib ketgan ko'ziga ko'zi tushadi. Buning sababi shu ekanki, Unsin qabristonga ketayotganda uni qaytarishni Dodxodan qattiq yolvorib so'rabdi va Dodxo Nodirmohbegimni xo'b uribdi. Unsinning xursandchiligi uzoqqa cho'zilmay hayotdan ko'z yumadi.

O'sha davrdagi Olimbek Dodxoga o'xshagan razil kimsalar bor ekan, ayol-qizlarimizning sha'ni toptalaveradi. Ushbu hikoyada hamma voqealar ochiqdan ochiq bayon etilgan. Bu xulosalarga kelsak, qadimgi sho'ro tuzumida insonlar ezilgan, ularning huquqlari poymol etilgan, xotin-qizlarga tajovuz qilishgan, buning hammasini adib "Dahshat" hikoyasiga joylagan. Bundan maqsad shuki, qadimgi davrni qaytadan gavdalantirish, qadimgi xalqning turmush-tarzini aks ettirish edi. "Xotin-qizlarning burun zamonda ko'rgan kunini bilmaysizlar, qizlarim, aytgan bilan ishonmaysizlar!.." – degan edi To'raxon oyi. Rostdan ham, o'sha zamonda boy va razil kimsalarni deb ayol-qizlar juda ko'p jabr ko'rishgan.

Adib bu hikoyani yozayotganda, ko'p narsa oydinlasha boshlaganiga qaramay, yozuvchi o'tmishni yoritib berish printsipiga sodiq qoladi va bu hikoyasida o'tmishni tasvirlaydi. Uning hikoyalari barcha kitobxonni jalb qiladi. Chunki bu asarda odamni qiziqtiradigan, o'ziga tortadigan voqealar juda ko'p. Uning asarlarini o'qigan har bir kishi ko'z oldida o'tmish yaqqol tasvirlanadi desak, mublag'a bo'lmaydi.

<sup>1</sup> Qozoqboy Yo'ldoshev, Begali Qosimov, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo'ldoshibekov; "ADABIYOT" umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua; TOSHKENT - 2017



Abdulla Qahhor bu hikoyani yozish niyati 50-yillarda boshlagan va o'sha davrdagi xalqning turmush tarzi, Stalin vafotidan keyin esa, shaxsga sig'inish kabi oqibatlarining qoralanishi, bundan tashqari, ertangi kunga ishonch va turmushning yaxshilanib borishiga adib quvonadi. Bunda jamiyatdagi xalqning manfaatini hech kim o'ylamaydi, natijada, hech kimning xalq bilan ishi bo'lmaydi, ularning haq-huquqlari razil kimsalar tomonidan toptaladi. Bu davrda odamlarning erkin yashashi, erkin fikrlashi, erkin so'zlashi qiyin bo'lgan, chor atrofda qo'rquv bilan yurgan odamlar yashagan bo'lsa, Abdulla Qahhor ham xuddi shunday hayotda yashagani hayratlanarlidir. Abdulla Qahhor ko'pgina asarlarida asosan, real hayotdan kelib chiqib yozadi va shu tufayli uning asarlari odamni o'ziga jalb qiladi.

Abdulla Qahhor badiiy asar tiliga, shu jumladan hikoyalari tiliga ham, juda katta mas'uliyat bilan qaragan, bu borada tinimsiz izlangan, mashaqqatli mehnatning barchasiga chidagan. Buning isboti sifatida o'zi tomonidan aytilgan quyidagi so'zlarni aytgan: "Kitobxonga bir fikrni anglatish yoki bir narsani tasavvur qildirish uchun kishining boshini qotirmaydigan, ochiq, ravon va sodda til kerak. Surat oldirayotgan kishi suratga chiroyli va kelishib tushmoqqa behuda zo'r berib, o'zining tabiiy holatini buzganday, yozuvchi chiroyli va "qoyil qilib yozishga" behuda zo'r bersa, adabiy asar uchun zarur bo'lgan tildagi soddalik, tabiiylik buziladi" – deydi adib. Har bir kitobxon kitob o'qiyotganida, uning uchun eng asosiy narsa bu – asarning aniq, sodda va tushunarli yoritib berilganligidir. Abdulla Qahhor o'z hikoyalarida esa, barcha voqea-hodisalar ochiq bayon etilgan va shu bilan kitobxon qalbiga kirishi oson va tez.

Abdulla Qahhorning yuksak mahoratini taniqli rus adibasi Lidiya bat shunday eslaydi: "Qahhor so'zlarining mag'zi butun. Undagi qisqalikning boisi ham shunda. Ortiqchalik, bejamalikdan asar ham yo'q, shuning uchun uning asarlarini tarjima qilish qiyin. U voqealarni, qahramonlar kechinmalarini shunday quyushtirib tasvirleydiki, ba'zan tarjimom o'zidan so'z qo'shib, uni "suyultirgisi", to'qimaga o'zining bezaklarini qo'shib yuborgisi keladi. Qahhor bunga o'ta sergak munosabatda bo'lar edi. Bir gal hikoyasi tarjimada qariyb ikki hissa ko'payib ketganini sezib, tarjimomni koyib bergan. Shunda tarjimom adibga g'alati e'tiroz bildirgan:

1. To'g'ri, siz ajoyib hikoya yozgansiz, lekin tarjima qilgan odam uni jindek, bo'lsa ham kengaytirgisi, jindek unga qo'shib qo'ygisi kelaveradi. Bunday hoida esa u o'ta siqiq, havo yetishmayotgandek...

Qahhor baribir ko'nmasdan:

2. Mayli, "yomon" ligicha, ammo – lekin meniki bo'lib qolsin. Men yozgan narsani "yaxshilashingiz" shart emas,<sup>2</sup>- degan ekan.

Yozuvchi hikoyalarining mazmuni aniq, qisqa, ravon bo'lganligi uchun boshqa yozuvchilardan farq qiladi. Masalan, o'tmish tasvirlangan "Dahshat" hikoyasi ham qisqa, lekin unda hamma detallar me'yorida qo'llangan. Avvalo, u badiiy ijodning u yoki bu namunasini shunchaki shuhrat qozonish yoki obro' orttirish uchun emas, mashaqqatli mehnat, tinimsiz izlanishlar bilan yuzaga keladigan natija ekanini adib juda yaxshi bilardi. U jahon adabiyotida e'tirof etilgan, tan berilgan N.V.Gogol, A.P.Chexov kabi ulug' rus yozuvchilarining hikoyanavislik sohasidagi mahoratini chuqur o'rganib, o'zlashtirgan. Bundan tashqari 30-

<sup>2</sup> A.Қаҳҳор замондошлари хотирасида. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, Т., 1987, 13-бет.



yillarda o'zining tarixiy romanlari va qator hikoyalari bilan, garchi ta'qiblar kuchli bo'layotgan bo'lganiga qaramay, u xalq orasida uning turmush-tarzini yaratib bergan.

A.Qahorning til mahoratiga qoyil qolgan mashhur adabiyotshunos olim O.Sharafiddinov quyidagilarni yozgan edi: "Abdulla Qahorning tili o'zi bir katta olam. Bir marta bu olamga kirgan odam undagi mislsiz go'zallikning asiri bo'lib qoladi, u olam tufayli o'zbek tili deb atalmish ona tilimizning nafisligiga, aniqligiga, rangdorligiga, ma'nodorligiga, har qanday nozik tuyg'uni, har qanday murakkab kechinmani ifodalay oladigan qudratiga qoyil bo'ladi. Abdulla Qahhor ishlatgan so'zlar, yaratgan jumlarlar tilimizning boyligini o'zida aks ettirib, kamalakday tovlanadi." (A.Qahhor, olti tomlik, 1-tom, 33-b).

Uning hikoyalari odamni o'ziga benihoyat jalb etadi va uni o'qigan odam yana o'qigisi kelaveradi. Buning sababi shundaki, u realikka asoslangan. Hayotiy voqea esa har bir kitobxonni o'ziga jalb eta olishi, shubhasiz. U o'sha davrdagi hayotni o'z hikoyalari joylagan. Masalan, "Dahshat" hikoyasini misol qilib olaylik. Bunda, Dodhoning sakkizinchi xotini Unsin juda jasoratli qiz. U ham erklikka intiladi, uyiga ketish uchun qo'lidan kelgan hamma ishni bajaradi, ammo uyiga o'ligi boradi. O'sha vaqtda adolatsizliklar, tajovuzlar ko'p bo'lganligi sababli adib deyarli hamma hikoyasida o'tmishdagi adolatsizliklar, xotin-qizlarni zo'rlash kabi holatlarni adib asarlariga bosh mavzu qilib oladi.

Yirik adabiyotshunos olim U.Normatov shu haqida gapirib, quyidagilarni yozadi: "Shu narsa ma'lum bo'ldiki, avtor yaratgan hikoyalarning ko'pchiligi real hayotiy asosga ega ekan, yozuvchi turmushda o'zi ko'rgan, eshitgan hodisalardan, tanish kishilar hayotidan hikoya yasar ekan. Ammo turmushda ko'rganlarini shundog'icha hikoyaga olib kiravermas ekan: ularni ming maqomga solib ko'rish, qayta saralash, tasodiflardan tozalash, unga "o'z yonidan" qo'shish, o'ylab yurgan gaplarini singdirish orqali badiiy haqiqatga aylantirar ekan. Zotan, yozuvchi hikoyalardagi hayotiylikning, ishontirish qudratining siri ham ana shunda" ("Mahorat sirlari", 9-10 betlar).

Yuqorida aytilgandek, real voqea har doim kitobxonni o'ziga jalb etadi, chunki uni turmushda ko'rgan, eshitgan hodisalardan kelib chiqib yozadi. Ularning hammasi hayotiy haqiqatga yo'g'rilgan. Masalan, "Dahshat" hikoyasidagi Unsin va kundoshi Nodirmohbegimning bir-biriga munosabatini olaylik. Hech qachon kundoshlar bir-biriga do'st bo'lmaydi, ular orasida har doim ziddiyat bo'ladi. Ammo bu asarda Nodirmohbegim va Unsin xuddi opa-singillardek. Bundan xulosa shuki, Nodirmohbegim ko'pni ko'rgan ayol va u Unsin yosh bo'lganligi uchun hamda Dodxoday razil insonga qul bo'lib yashashini xohlamaydi, ya'ni o'zi ko'rgan azoblarni Unsin ko'rishini xohlamaydi. Nodirmohbegim Unsin uchun Dodxodan kaltak ham yeydi. Hikoyaning mana shu yerlari juda chiroyli tasvirlangan.

O.Abdullayevning bildirgan fikrlaridan foydalangan holda quyidagicha aytishimiz mumkin: "Bu hikoyalar haqida ko'p yozilgan, ularning jahon adabiyoti durdonalaridan qolishmasligi allaqachon isbotlangan... Xullas, mustaqillik ruhini yuragiga joylab, o'zligini anglab borayotgan avlod uchun bu hikoyalar katta hayot maktabi vazifasini o'tashi, shubhasiz" <sup>3</sup>("Jahon adabiyoti", 1998 yil, 1-son, 35-bet). Abdulla Qahorning hikoyalari nafaqat o'zining, balki XX asr adabiyotchiligida ham o'chmas iz qoldirdi desak, adashmaymiz. Uning hikoyalari o'zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham hozirgacha sevib

<sup>3</sup>("Jahon adabiyoti", 1998 yil, 1-son, 35-bet).



o'qilmoqda. Abdulla Qahhor hikoyalarini rang-barang, bir-biriga o'xshamaydigan va eng asosiysi o'z hayotidan kelib chiqib yozishi, uning asarlari hozirgacha sevib o'qilayotganidan dalolat. Abdulla qahorning aytishicha: "Qalb harorati bilan ilitilmagan, dardsiz, ehtirossiz yozilgan sovuq asarlar" ga qarshi edi. Shuning uchun ham u o'zining ijod namunasini puxta ishladi.

Abdulla Qahhor aytganidek, "Adabiyot atomdan kuchli..." Agar uning kuchi "o'tin yorish"ga sarf qilinmasa, adabiyot pokiza va muqaddas ish bo'lib qolsa, hech shak-shubxa yo'qki, badiiy so'zning kuch-quvvati ortib boradi. Haqiqatdan ham, adabiyot taqdiri yurt va millat taqdiri bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun ham Abdulla Qahhornign yozgan hikoyalari ko'pgina tanqid ostiga olingan. Ammo adib bunga qaramay, ijodini davom ettirgan. Mustaqillik arafasida Oybek, Abdulla Qahhor kabi buyuk adiblar ijodida shubha bilan qaraganlar ham bo'ldi. O'zlari hech qanday ish qilmasdan ya'ni qo'lga kitob olmagan insonlar uning ijodini o'zicha qoralay boshladi. Adib bu tanqidlarga e'tibor bermay, shunday deydi: "Adabiy asar yozish uchun, hech shubhasiz, talant kerak. Lekin yozilgan narsani o'chirish, kitobxonga zarur narsanigina qoldirish uchun talantning o'zigina kifoya qilmaydi, insof ham kerak" – degan achchiq gaplarni aytadi. Abdulla Qahhor hikoyalari haqqoniy yoritib berishiga xizmat etgan. Undagi qahramonlarni soxta va yasama ko'rsatishga harakat qilmagan. Adib ko'proq oddiy odamlarni hikoyasining qahramonlari qilib tanlagan. Uning hikoyalarini o'qisak, undagi qahramonliklarni faqat erkaklar emas, balki jasurlik, matonatlik ayollarga ham xos ekaniga guvoh bo'lamiz. Bularning hammasi "Dahshat" hikoyasida jamangan.

Adabiyotshunos H. Karimov tomonidan, "Dahshat" hikoyasidagi tasvirlarda yozuvchining dalillash mahoratida juda ko'p kamchiliklar bor, deya e'tiroz bildiradi. Ammo bu e'tirozlari asosli emas. Chunki, bu hikoyadagi har bir aytiladigan gap, qilinadigan ish oldindan rejalashtirilgan va uning tagida juda katta haqiqat yotadi. Bundan tashqari kundoshlar bir-biri bilan xuddi opa-singillardek bo'lishini ham tub haqiqati bor, aslida. To'g'ri, qadim o'tmishdan hozirgi kunga qadar hech bir kundosh bir-biriga do'st bo'lmaydi, aksincha bir-birini yo'q qilishni o'ylashadi. "Dahshat"da esa aksincha, Nodirmohbegim Unsinga ko'p yordam va maslahatlar beradi. Bu masalada ham A.Qahorning dalillash mahorati yuksak darajada namoyon bo'lganligi yirik adabiyotshunoslar tomonidan e'tirof etilgan. Demak, Abdulla Qahorning hikoyalarining puxtaligi va dalillash mahoratining g'oyat yuksakligi bilan ko'pchilik hikoyanavislarga ibrat bo'lib qoldi. Chunki uning barcha ijod namunalari yuksak baholangan.

Adib Jamol Kamol Abdulla Qahorning mard va jasurligi uchun "Abdulla Qahhor xotirasiga" she'rida xayolan shunday deydi:

*Kim ham kiya olur endi to'ningni,  
Kim ham bog'lay olur sening belbog'ing?*

Abdulla Qahhor kiygan to'nni, beliga bog'lagan belbog'ini kim ham qila olardi. Menimcha, hech kimning qo'lidan kelmasa kerak. Chunki uning zabardast yozuvchilardan ekanligini xalq tan olib qo'yibdi. Uning jasoratiga, kurashchanligiga, haqqo'yiligiga havas qilsak arziydi. Avvalo, adibning jasorati to'g'rilik va haqiqatdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, taniqli, zabardast adibimiz Abdulla Qahhor juda ko'p ijod qildi. Bir-biriga o'xshamaydigan hikoyalari talaygina va hikoyalari hozirga qadar o'quvchilarimiz



tomonidan sevib o'qilmoqda. Uning "Dahshat" hikoyasi hozirgacha qo'ldan qo'lga o'tib, o'qilmoqda. Undagi bo'layotgan voqea hammani dahshatga solishi aniq va buning sababini yuqorida ta'kidlagan edik. Hikoyadagi asosiy qahramon Unsin o'zining erki, ozodligi uchun kurashadi, ammo maqsadiga yeta olmay, hayotdan ko'z yumadi. Unsin juda erta turmush qurgan va har bir yangi kelinchak ota-onasi va yaqinlarini sog'inadi, ammo Dodho uni uyiga yuborgisi kelmaydi. Bunda yana yosh qizlarimizning erta turmushga chiqishining oqibatlarini ham yaqqol sezilib turibdi. Bu hikoyada Dodhoning uyini "tiriklar qabristoni" deb ham atalishi ham juda o'zgacha. Bu hikoyani o'qigan odam uni yana o'qigisi kelaveradi desak, yangilishmaymiz.

### References:

3. A.Qahhor zamondoshlari xotirasida. G.G'ulom nashriyoti. 1987 yil.
4. A.Қахқор замондошлари хотирасида. Ғ.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, Т., 1987.
5. A.Qahhor, olti tomlik, 1-tom.
6. "Mahorat sirlari".
7. "Jahon adabiyoti", 1998 yil, 1-son.